



1913-yil aprel oyidan chiqa boshlagan

Fidoyilik —
Vatanga xizmat demak!

2023-yil 14-oktabr, shanba,
121 (23.842)-son

**KUN
HIKMATI**

Kitob o'ylashga
o'rgatadi,
o'ylagan odam
esa yaxshi
yashaydi

Yoshlar o'zaro ishonchni mustahkamlash yo'lida birlashdi

11-13-oktabr kunlari Samarqandda Osiyoda hamkorlik va ishonch choralari bo'yicha kengash (SISA) Yoshlar kengashining oltinchi yig'ilishi va uning doirasida bir qator tadbirlar o'tkazildi.



O'zbekiston Respublikasi Yoshlar siyosati va sport vazirligi, Yoshlar ishlari agentligi, Tashqi ishlar vazirligi, Osiyoda hamkorlik va ishonch choralari bo'yicha kengash hamda Birlashgan Millatlar Tashkiloti bilan hamkorlikda tashkil etilgan forumda kengashga a'zo va kuzatuvchi 20 dan ortiq davlatdan yoshlar siyosatini amalga oshirishga mas'ul bo'lgan davlat organlari va jamoat tashkilotlari, o'quv yurtlari vakillari, xalqaro ekspertlar bevosita, shuningdek, o'nga yaqin mamlakat yoshlar siyosati mutasaddilari videokonferens aloqa shaklida ishtirok etdi.

Anjumanning ochilish marosimida O'zbekiston Respublikasi Yoshlar siyosati va sport vaziri Adham Ikromov, Osiyoda hamkorlik va ishonch choralari bo'yicha kengash Bosh kotibi Kayrat Saribay yoshlar kengashining Samarqanddagi oltinchi yig'ilishi hamda uning doirasidagi yosh liderlar forumi va ilk bor tashkil etilayotgan avlodlar muloqoti tadbirlari 2022-yil 13-oktabr kuni Qozog'istonning Ostona shahrida bo'lib o'tgan Osiyoda hamkorlik va ishonch choralari bo'yicha kengashning oltinchi sammitida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev tomonidan bildirilgan tashabbus asosida o'tkazilayotganini ta'kidladi.

Shuningdek, ular bu galgi forum zamonamizning dolzarb muammolarini

yoshlar manfaatlarini nuqtai nazaridan o'rganish, yoshlarning radikalashuviga yo'l qo'ymaslik, ijtimoiy rivojlantirish, ilm-fan, ta'lim va mehnatni muhofaza qilish, atrof-muhit musaffoligi va inson salomatligini saqlash, ma'naviy-axloqiy qadriyatlarni asrashga qaratilganini qayd etib, ishtirokchilarni bu tadbirlarda faol ishtirok etishga chaqirdi.

O'zbekiston Yoshlar siyosati va sport vaziri Adham Ikromov hamda vazir o'rinbosari – Yoshlar ishlari agentligi rahbari Alisher Sa'dullayev o'z so'zida mamlakatimizning yoshlariga oid davlat siyosati va bu boradagi qonunchilikning takomillashtirilayotganini, yigit-qizlarning huquq va manfaatlarini himoya qilish, ularning davlat va jamiyat hayotidagi faolligini oshirish borasida amalga oshirilayotgan ishlar haqida ma'lumot berdilar.

Shundan so'ng kengash a'zolari va xalqaro ekspertlar bugungi kunda dunyo miqyosida yoshlarga oid qonunchilik, ularning huquqlarini himoya qilish borasida amalga oshirilayotgan ishlar haqida so'z yuritib, o'zaro fikr almashdilar.

Yoshlar kengashining yig'ilishi doirasida avlodlar muloqoti, yosh liderlar forumi, O'zbekiston va Qozog'iston yoshlar kongressi, O'zbekiston va Rossiya, O'zbekiston va Ozarbayjon yoshlar forumlari o'tkazildi.



MARKAZIY OSIYO DAVLATLARI ORASIDA ILK BOR SAMARQANDDA UNWTO SAMMITI O'TKAZILADI

Samarqand BMTning Butunjahon turizm tashkiloti (UNWTO) Bosh Assambleyasining yubiley sammitini o'tkazishga katta tayyorgarlik ko'rmoqda. 150 dan ortiq mamlakatdan mehmonlar kelishi kutilayotgan tadbirda delegatsiyalar ishtirokini tasdiqlashda davom etmoqda, ularning orasida 77 nafari turizm sohasidagi vazirlardir, 72 nafari esa turli darajadagi xalqaro tashkilotlar vakillari hisoblanadi. Ushbu yirik anjuman davomida biz Samarqanddagi mavjud turistik salohiyat, investitsion muhit va jozibadorlikni namoyish etish imkoniyatiga ega bo'lamiz. Alohida qayd etish kerak, mazkur xalqaro anjumanga butun dunyodan turoperatorlar, aviasoha egalari, mehmonxona tizimlari rahbarlari, umuman, turizmga aloqador professional mutaxassislar jam bo'lishi kutilmoqda.

Samarqand mazkur anjumanga katta tayyorgarlik ko'rmoqda 400 nafarga yaqin volontyor ro'yxatga olingan. BMTning olitita rasmiy tilida tarixiy majmualar haqida ma'lumotlar chop etildi. Xalqaro turizm

markazida mamlakatimizning 14 hududi o'z turistik imkoniyatlarini namoyish etiladi. Boqiy shahar majmuasi hududida esa milliy an'analimiz, urf-odatlarimizni aks ettiruvchi kompozitsiya tayyorlanmoqda. Unda milliy taomlarimizni tayyorlashdan tortib, hunarmandlarning ko'rgazmasi, milliy liboslarimiz namoyishi, an'anaviy kuy-qo'shiqlar, laparlarni o'z ichiga olgan folklor-etnografik ansambllar chiqishlari tashkillashtiriladi.

Yaqinda mamlakatimiz rahbari turizmni rivojlantirishga qaratilgan selektor yig'ilishida aynan Butunjahon turizm tashkiloti Bosh Assambleyasining sammitida mamlakatimizning boshqa viloyatlari ham turistik salohiyatini ko'rsatishi kerakligini ta'kidlagandi.

Umid qilamizki, ushbu sammit qadim va betakror Samarqandga qiziquvchi sayyohlar soni oshishiga turtki beradi. Samarqand viloyati 3 millionga yaqin turistni qabul qilishi imkoniga ega bo'ladi. Endilikda turistlarning nafaqat tarixiy madaniy inshootlar tomoshasini yuqori



darajada tashkil etish, balki bo'sh vaqtlarini mazmunli o'tkazishlari uchun ham sharoit yaratishga harakat qilamiz.

Rustam QOBILOV,
Samarqand viloyati hokimi
o'rinbosari.



15 oktabr – Xalqaro qishloq ayollari kuni

**"ODDIY
TOMORQACHI
EDIM, BUGUN
XALQARO
ANJUMANLAR
ISHTIROKCHISIMAN"**

3-sahifaga qarang

“Yashil belbog”lar tashkil etiladi

Davlatimiz rahbari Sh.Mirziyoyev raisligida joriy yil 11-oktabr kuni turizm va madaniyat maskanlari imkoniyatini to'liq ishga solish va “Yashil makon” kuzgi mavsumini tashkil etish bo'yicha yig'ilish o'tkazildi. Unda joriy yilning 25-oktabridan 1-dekabrigacha kuzgi daraxt ekish mavsumi e'lon qilindi.

Prezidentimiz ushbu loyiha boshlanganidan buyon o'tgan 2 yilda uy-joy massivlarida 1200 gektardan ortiq yashil bog' va jamoat parklari, 1 million gektardan ziyod yashil hudud va qoplamalar barpo etilganini ta'kidladi.

Joriy yilgi umummilliy loyiha doirasida 85 million tup ko'chat ekish rejalashtirilgan. Samarqandda “Yashil makon” umummilliy loyihasi doirasida kuzgi mavsumda salkam 7 million tup ko'chat ekiladi.

Mevali va manzarali ko'chatlar ekish nega bunchalar dolzarb?

Bugungi ekologik vaziyatni yaxshilash, yerlar degradatsiyasini kamaytirish, cho'llanishning oldini olish, yurttimiz hududini yashillikka burkash choralarini amalga oshirish aslo kechiktirib bo'lmaz vazifalardan hisoblanadi. Buning eng maqbul yechimlaridan biri, albatta, daraxtzorlar va yashillikni ko'paytirishga bog'liq. Shu bois bir necha yildan buyon mamlakatimizda “Yashil makon” umummilliy dasturi doirasida bahor va kuz fasllarida katta hajmda ko'chat ekish tadbirlari o'tkazilmoqda.

Umummilliy loyiha doirasida viloyat hududida 2023-yil bahor mavsumida 10 million 364 ming tup mevali va manzarali daraxt va buta ko'chatlari ekildi. Samarqand shahri Qorasuv massividagi 38 gektar maydonda (jami rejalashtirilgan yer maydoni 52 gektar) “Yangi O'zbekiston bog'i” tashkil etildi. 6,1 milliard so'm mablag' evaziga tumanlar obodonlashtirish boshqarmalari 8 ta maxsus

texnika xarid qilindi.

Joriy yil kuz mavsumida esa 6 million 942 ming tup mevali va manzarali daraxt va buta ko'chatlarini ekish bo'yicha manzilli dastur ishlab chiqildi. Rejaga ko'ra, kuz mavsumida viloyatning barcha shahar va tumanlarida “yashil jamoat parklari” tashkil etiladi. Jami 19 gektar maydonda 16 ta “hokimlik bog'i”, shuningdek, davlat tashkilotlari tomonidan 50 sotixdan 2 gektargacha yer maydonida tashkilot bog'lari barpo etiladi. 7 ta shahar va tumanda 28,4 gektar “yashil bog”lar hamda atrof-muhitga ta'siri xavfi 1 va 2-toifaga kiruvchi yirik sanoat korxonalari tomonidan 71,8 gektar maydonda 120 ming dona ko'chat ekilib, “yashil belbog” tashkil etiladi.

Viloyatning Bulung'ur, Jomboy tumanlari hamda Samarqand shahri hududidan o'tuvchi temiryo'l yoqasida 41 kilometr masofadagi 24,93 gektar yer maydonida 30 ming 962 dona bodom, qayrag'och, aylant, terak daraxtlari ekilib, “yashil maydon”lar yaratiladi.

Yuqoridagi tadbirlarni amalga oshirish uchun ko'kalanzorlashtirish hududlarida 55 kilometrdan ziyod sug'orish tarmoqlari qaziladi va 25 ta yer osti suv chiqarish quduqlari qayta tiklanadi. Daraxt va buta ko'chatlari ekish ishlarini sifatli amalga oshirish uchun 52 ta ko'chatxonada 10 million 237 ming tup ko'chat xazirasi yaratildi.

Rustam ISLOMOV,
viloyat prokuraturasi bo'lim
katta prokurori.

Samarqand viloyati hokimining QARORI

Xalq deputatlari viloyat Kengashining oltinchi chaqiriq to'qson birinchi sessiyasini chaqirish to'g'risida

“Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida”gi O'zbekiston Respublikasi Qonunining 17-moddasiga asosan **QAROR QILAMAN:**

- Xalq deputatlari viloyat Kengashining oltinchi chaqiriq to'qson birinchi sessiyasi **2023-yil 20-oktabr kuni** chaqirilsin.
- Sessiya kun tartibiga quyidagi masalalar kiritilsin:
 - Nurobod, Toyloq, Qo'shrabot hamda Oqdaryo tumanlari hokimlarining aholi muammolarini hal qilish borasida olib borayotgan ishlari to'g'risidagi hisobotlari;
 - O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 24-noyabrdagi “Sud hujjatlari va boshqa organlar hujjatlari iro etish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi PF-6118-sonli farmoni ijrosi yuzasidan Majburiy ijro byurosi viloyat boshqarmasi boshlig'i S.Jabarovning hisoboti haqida;
 - viloyat ma'muriy sudi raisi S.Soliyevning viloyat sudi tomonidan 2023-yil 9 oyi davomida viloyatda odil sudlovni amalga oshirish borasidagi ishlari yuzasidan axboroti haqida;
 - O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 4-apreldagi “Avtomobil yo'llarida inson xavfsizligini ishonchli ta'minlash va o'lim holatlarini keskin kamaytirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi PQ-190-sonli qarorining viloyatdagi ijrosi yuzasidan viloyat transport boshqarmasi boshlig'i A.Ashurovning hisoboti haqida;
 - Kattaqo'rg'on shahri, Kattaqo'rg'on va Nurobod tumanlarining mavjud ma'muriy-hududiy chegaralarini o'zgartirish to'g'risidagi masalani ko'rib chiqish haqida;
 - viloyat hokimligining yangilangan tashkiliy tuzilmasini tasdiqlash to'g'risida;

- viloyat mahalliy budgetining qo'shimcha manbalaridan foydalanish to'g'risida;
- viloyatda ichimlik va oqova suv xizmatlari tariflari miqdorini belgilash to'g'risida;
- xalq deputatlari viloyat Kengashining 2021-yil 28-maydagi “Samarqand viloyatida yangi kichik sanoat zonalarini tashkil etish to'g'risida”gi 234/32-VI-son qaroriga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish haqida;
- Samarqand shahar hokimligi obodonlashtirish boshqarmasi balansidagi Kimyogarlar qo'rg'onida joylashgan, foydalanilmasdan turgan “Asfalt-beton ishlab chiqarish sexi” bino va inshootini auktsion savdolariga chiqarish to'g'risida;
- jamoat ehtiyojlari uchun yer uchastkalarining olib qo'yilishiga ruxsat berish to'g'risida;
- xalq deputatlari viloyat Kengashining 2023-yil 16-iyundagi “Samarqand viloyatida avtomobil yo'llari, ichimlik suvi ta'minoti va oqova suv tizimi, elektr energiyasi ta'minoti, ijtimoiy soha obyektlarini qurish, rekonstruksiya qilish va ta'mirlash ishlarini yanada takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida”gi VI-87-57-7-0-K/23-son qaroriga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish haqida;
- 2023-yil III chorak yakunlari bo'yicha viloyat hokimi o'rinbosarlarining samaradorlik ko'rsatkichlari bajarilishi natijalarini tasdiqlash to'g'risida.

Viloyat hokimi

E.TURDIMOV

2023-yil 13-oktabr

YANGIQO‘RG‘ON YANGILANMOQDA

Joylardagi og‘ir hudud deb belgilangan aholi manzillarida davlatimiz rahbari topshirig‘iga asosan “Obod xonadon”, “Obod ko‘cha” va “Obod mahalla” mezonlari joriy etilmoqda.

Jumladan, ayni paytda Samarqand viloyatining Kattaqo‘rg‘on tumani-dagi Cho‘yanchi, Ishtixon tumani-dagi Chag‘atoy, Past Darg‘omdagi Olti qahramon hamda Oqdaryodagi Yangiqo‘rg‘on mahallalarida ushbu tizim asosida hudud infratuzilmasini yaxshilash, aholi uchun munosib tur-mush sharoiti yaratish borasida keng ko‘lamli ishlar amalga oshirilmoqda.

4400 nafardan ortiq aholi yashay-digan Yangiqo‘rg‘on shu paytgacha bu kabi bunyodkorlik ishlari bajarilma-gan. Hududiy dasturlarda ham mazkur mahalla infratuzilmasini yaxshilash bilan bog‘liq loyihalar ko‘zda tutilmagan. Respublika ishchi guruhining o‘rganishlaridan so‘ng Yangiqo‘rg‘onni “Obod xonadon”, “Obod ko‘cha” va “Obod mahalla” mezonlari aso-sida yangilashga qaror qilindi. Hozirda butun mahallada quri-lish-obodonlashtirish ishlari olib borilmoqda.

Dastlab mahalladagi 715 ta xonadon to‘liq xatlovdan o‘tkazilib, har bir oila va uning a‘zolari bilan bog‘liq masalalar, yechimini kutayotgan muammolar aniqlandi. Huddudagi elektr, gaz, suv ta‘mi-noti, yo‘llar va ijtimoiy soha obyek-tlarining holati o‘rganildi. O‘rga-nishlar natijasi bo‘yicha yo‘l xaritasi ishlab chiqilib, har bir masala bo‘yicha chora-tadbirlar belgilandi.

– Mahallamizdagi asosiy muammo-li masalalar yo‘l va elektr energiyasi ta‘minoti bilan bog‘liq edi, – deydi Oqdaryo tumanidagi Yangiqo‘rg‘on mahallasi raisi Ulug‘bek Mustafoyev. – Shuning uchun avvalo, Yunus Rajabiy ko‘chasi va Mahalla qishlog‘ida 4,2 kilometr ichki yo‘llar shag‘allashtirildi. Boybo‘ta qishlog‘ida 1 kilometr yo‘lga asfalt yotqizildi. Shuningdek, mahalla-mizni tuman markazi va qo‘shni qish-loqlar bilan bog‘lovchi uchta yo‘lning jami 16 kilometr qismi ta‘mirlandi.

Yangiqo‘rg‘on, Mahalla va Boybo‘ta qishloqlarimizda aholi elektr ta‘minotini yaxshilash uchun 5240 metr tarmoq yangilanib, 4 dona transformator mukammal ta‘mirlandi. 60 dona temir beton ustun o‘rnatildi. Bu boradagi ishlar davom etmoqda.

Gaz ta‘minoti tashkiloti to-monidan 6120



metr xar xil diametrligaz quvurlari nazoratdan o‘tkazildi. Besh dona yuqori bosimli gaz taqsimlash qutillari texnik ko‘rikdan o‘tkazilib, zarur- ratga qarab, ta‘mirlash ishlari bajarildi.

Shu paytgacha mahallamizning o‘z binosi yo‘q edi. Hozirda madaniyat uyi yonidagi bo‘sh maydonda mahalla markazi qurishga kirishildi. Yil yakuni-ga qadar foydalanishga topshirilishi kutilmoqda.

“Obod xonadon” mezonini bo‘yicha mahalladagi uy-joylar xonadon egalari va homiylar ko‘magida ta‘mirlanmoq-da. Xususan, qizil toifadagi 21 ta xonadonning 10 tasi homiylar yordami-da zamonaviy ko‘rinishga kelmoqda. Bundan tashqari, “Temir daftar”da ro‘yxatda turuvchi bir nafar fuqaroning xonadoniga 10 million so‘mlik quyosh paneli o‘rnatildi.

Aholi bandligini va doimiy daromad manbaiga ega bo‘lishini ta‘minlash maqsadida 2 nafar fuqaroga ti-kuv

mashinasi, yana bir nafariga asbob uskuna va mehnat qurollari olib berildi. “Ayollar daftari”gi kiritilgan 25 nafar xotin-qizga ham moddiy yordam ko‘rsatildi. Tadbirkorlik qilish istagida bo‘lgan 6 nafar fuqaroga jami 79 million so‘m miqdorida imti-yozli kredit mablag‘lari ajratildi. Shu tarzda 50 dan ortiq fuqaroning bandligi ta‘minlandi. Huddudagi “Sariq Qush ota” qab-ristonida obodonlashti-rish ishlari olib borildi.

Mahallada qurilish-obodonlashtirish ishlari bilan birga aholini tibbiy ko‘rikdan o‘tkazish va ular o‘rtasida tibbiy madaniyat-ni yuksaltirishga qaratilgan tadbirlar ham amalga oshiril-moqda. Xususan, hozirgacha tuman va viloyat tibbiyot muassasalari malakali mu-taxassislari tomonidan 1049 nafar fuqaro tibbiy ko‘rikdan o‘tkazildi. Kasallik aniqlan-gan bemorlarning ambulator sharoitda yoki shifoxonada davolanishlari uchun 158 kishiga zarur tavsiya va tibbiy muassasalarga yo‘llanmalar berildi.

Xonadon madaniyatini yuksaltirish, hovli-joylarni toza-ozoda saqlash, oilalar-dagi ijtimoiy-ma‘naviy muhitni sog‘lomlashtirish, yoshlar tarbiyasida keksalarning rolini oshirish maqsadida davlat va jamoat tashki-lotlari tomonidan aholi o‘rtasida keng miqyosda tushuntirish-targ‘ibot ishlari ham olib borilmoqda. Ushbu yo‘nalishda har bir qishloqda uch avlod uchrashuv-lari, “Bir naroniye o‘n nafar yosh” tadbirlari, “Zakovat”, “Zukko kitobxon”, “Munozara” intellektual o‘yinlari, sport musobaqalari o‘tkazilmoqda.

Mahalla raisining aytishicha, tez orada Yangiqo‘rg‘onni yangicha ko‘ri-nishdagi, aholi uchun har tomonlama qulay, ko‘rkam maskanga aylantirish rejalashtirilgan. Huddudagi uch qish-loqda bu borada jadal ish olib boril-moqda.

G‘. HASANOV.



QO‘SHRABOT da

TIBBIY XIZMAT KO‘RSATISH SIFATI YAXSHILANMOQDA

AMMO SHIFO MASKANLARIDA OLIY MA‘LUMOTLI VRACHLARGA EHTIYOJ BOR

Checkka hududlarda aholiga sifatli tibbiy xizmat ko‘rsatish uchun oilaviy poliklinika va shifokorlik punktlari zamon talablari asosida jihozlangan, zamonaviy tibbiyot uskunalarini hamda zarur dori-darmon vositalari bilan ta‘minlanib, malakali shifokorlar jalb qilingan bo‘lishi kerak. Xo‘sh, viloyatning olis tumanlaridan biri – Qo‘shrabotda bunday sharoit-lar yaratilganmi?

Viloyat sog‘liqni saqlash boshqarmasi tomonidan tashkil etilgan press-turda jurnalist va blogerlar tuman-da aholiga tibbiy xizmat ko‘rsatish uchun yaratilgan shart-sharoitlar bilan tanishdi.

Dastlab tuman tibbiyot birlashmasi boshlig‘i Ulug‘bek Shamsiyev 2022-2023-yillarda sohada amal-ga oshirilgan ishlar haqida ma‘lumot berdi. Hozirda tumanda bitta markaziy shifoxona, bitta ko‘p tarmoqli markaziy poliklinika va uning Jo‘sh filiali, 2 ta oilaviy poliklinika, 12 ta oilaviy shifokorlik punkti, mahallalarda 21 ta tibbiyot konteynerlari faoliyat ko‘rsatmoqda.

Keyingi yillarda Jonbuloq oilaviy shifokorlik punk-ti “Obod qishloq” dasturi asosida 800 million so‘m mablag‘ evaziga kapital ta‘mirlandi, Toz, Oqchopsoy va Oqmachit oilaviy shifokorlik punktlari 4,7 milliard so‘m, Pangat hamda Qo‘shrabot oilaviy shifokorlik punktlari investitsiya dasturi asosida 3,7 milliard so‘mga yangi-gan qurilib, foydalanishga topshirildi hamda ular-ni har biri 16 turdagi zamonaviy tibbiy jihozlar bilan ta‘mirlandi.

Joriy yilda Qovunchi oilaviy shifokorlik punkti 1,5

milliard so‘m homiylar mablag‘lari hisobidan yangidan qurildi. Hudduda tibbiy xizmat sifatini oshirish uchun tez tibbiy yordam shoxobchasi tashkil etildi. Shu bilan birga, markaziy shifoxonaning moddiy texnik bazasi-ni yaxshilash maqsadida “Tashabbusli budget” mab-lag‘i hisobidan 1,2 milliard so‘m ajratilib, tibbiy as-bob-uskunalar bilan ta‘minlangan. Birlashmaning ichki kasalliklar, asab kasalliklari, jarrohlik, ginekologiya, reanimatsiya, bolalar kasalliklari va operblok bo‘limlari ham to‘liq ta‘mirdan chiqarilgan.

Press-tur davomida ishtirokchilar tuman markazidan 80 kilometr uzoqlikda joylashgan Oqchopsoy oilaviy shifokorlik punkti faoliyati bilan tanishdi.

– Punktimizda 2 nafar shifokor va 6 nafar patronaj hamshira 3640 nafar aholiga xizmat ko‘rsatmoqda, – deydi Oqchopsoy oilaviy shifokorlik punkti mudiri Qahhor G‘ofurov. – Bu yerda aholiga tibbiy xizmat ko‘rsatish uchun barcha sharoit yaratilgan. Jumladan, bino qish kunlari ko‘mir bilan isitiladi, zarur dori-dar-monlar zaxirasi bor, aholi uchun tez tibbiy yordam ko‘rsatishga mo‘ljallangan maxsus UAZ avtomashinasi



TADBIRKORLARIMIZ TATARISTONDAN QURUQ QAYTMADI

Joriy yilning 4-5-oktabr kunlari Samarqand viloyati hokimi rahbarligidagi delegatsiya Tatariston markazi Qozon shahrida bo‘lib o‘tgan Rossiya Federatsiyasi va O‘zbekiston hududlari o‘rtasidagi III hamkorlik forumida ishtirok etdi.

Forumda mam-lakatimizning barcha viloyatlari va Tosh-kent shahri hokimlari, Qoraqalpog‘iston Res-publikasi Jo‘qorg‘i Ken-gasi raisi boshchiligidagi delegatsiyalar ham ishtirok etdi.

Dastlab delegatsi-ya a‘zolari O‘zbekis-ton-Rossiya ishbilarmon-lari kengashi yig‘ilishida qatnashdi. Unda samar-qandlik tadbirkorlarning rossiyalik tadbirkorlar bilan investitsiyaviy va savdo sohasidagi hamkorligi, viloyatdagi tadbirkorlik muhiti va investorlarga yaratilgan sharoitlar haqida ma‘ru-za qilindi.

Rossiya Federatsi-yasi tadbirkorlari to-monidan hamkorlikda ishlab chiqarishga taklif etilayotgan mahsulot-lar, ilmiy va IT ishan-malar ko‘rgazmasi bilan tanishib, ikki mamlakat tadbirkorlari o‘rtasidagi B2B formatidagi muhokamalarga kirishdik.

Mazkur uchrashuv va muzokaralarda umumiy qiymati 160 million dollarlik zamonaviy logistika markazini tashkil etish, qurilish, gilam va gilam mahsulotlari, o‘simlik yog‘i ishlab chiqarish, meh-monxona, savdo-maishiy majmuasi barpo etish, tibbiy, veterinariya diagnostik sistemalari va test komplekslarini tayyorlash bo‘yicha investitsion loyihalarni amalga oshirishga kelishildi.

Shuningdek, umumiy qiymati 50,8 million dollarlik tekstil, elektrotexnika, mebel sanoati mahsulotlari, quritilgan meva va sabzavotlar eksporti bo‘yicha kelishuvlar imzolandi.

Rossiyaning “TATNEFT” aksiyadorlik jamiya-ti Samarqanddagi neftni qayta ishlash va neft mahsulotlari ishlab chiqarishga ixtisoslashgan “MOSXAR” MChJni yiliga 240 ming tonna neft va qo‘shimcha ingridi-yentlar bilan ta‘minlaydigan bo‘ldi. Delegatsiyamiz a‘zolari forum doirasidagi tadbirlar bilan chegara-lanib qolmasdan, Qozon shahridagi bir qator innovatsion loyihalar bilan tanishdi.

Jumladan, IT PARK va uning rezidentlari faoliyatiga yoshlarni faol jalb etish, yangi

xizmat turlari amaliyoti bilan tanishib, dasturchilar, turli mobil ilovalar tayyorlash xizmatlari, rezident-larga yaratilgan qulayliklar hamda tadbirkorlik subyektlari tomonidan tushayotgan buyurtmalar va ularning bajarilish jarayonlarini ko‘zdan kechir-dik.

Shahardagi “ALABUGA” erkin iqtisodiy zo-nasiga sayohatimiz davomida hududda kom-munikatsiya vositalarining qulayligi - yo‘llarning ravonligi, temiryo‘l tarmog‘ining mavjudligi, soliqlar va bojxona xizmatlari bo‘yicha imtiyozlar e‘tiborimizni tortdi.

“Alabuga Politeks” ishlab chiqarish o‘quv majmuasi 2 mingdan ortiq yoshlarni hududda-gi korxonalarga zarur bo‘lgan 18 yo‘nalishda tayyorlayapti. O‘quv majmuasidagi mashg‘ulot-lar bevosita shu hududdagi korxonalarda ishlayotgan malakali mutaxassislar tomonidan o‘tkazilyapti. Talabalarga kasb sirlari ishlab chiqarish jarayonlarining o‘zida o‘rgatilyapti.

Tadbirkorlarimiz mazkur iqtisodiy zonadagi korxonalar bilan 34 ta yirik innovatsion loyi-halarni amalga oshirishga kelishib oldilar.

So‘ng Qozon shahrida yangi qurilgan zamonaviy turarjoy massivlaridan biri “ART CITY”da bo‘ldi. Ko‘pqavatli uylar orasida kichik parklar, bolalar o‘yingohlari, ko‘kalamlashtiril-gan maydonchalar, daraxzorlar, yo‘lovchilar uchun maxsus yo‘laklar, maishiy chiqindilarni to‘plash va ularni olib chiqish tizimi o‘rnak ola-digan darajada. Ko‘pqavatli uylarni boshqarish kompaniyasining ish uslubi, aholiga ko‘rsati-layotgan servis xizmatlari, fuqaro va kompani-ya o‘rtasidagi mas‘uliyatlar taqsimoti, axborot almashinuvlarning raqamlashtirilganligi, bitta kompaniyaning 30 ming aholiga ega massivni samarali boshqarayotgani diqqatimizni tortdi.

Xullas, bugun forumda erishilgan kelishuvlar, loyihalar bo‘yicha ishlarni boshlab yubordik. Har bir loyiha uchun tarmoq jadvali tuzilib, ularni amal-ga oshirishga, eksport shartnomalari bo‘yicha mahsulotlar tayyorlashga kirishildi.

Safardan ruhlangan tadbirkorlarimiz forumda kelishilgan investitsiyaviy va savdo loyihalarini o‘z vaqtida va sifatli amalga oshirish, hamkorlar o‘rtasida o‘zaro ishonch ruhini shakllantirish ishlariga bel bog‘lashgan.

N. IBRAGIMOV,
viloyat hokimining
mahalliy sanoatni
rivojlantirish
masalalari bo‘yicha
yordamchisi.



Qo‘shrabot tumani tibbiyot birlashmasiga qarashli markaziy shifoxona binosi ta‘mirlanib, tibbiyot punktlari va oilaviy poliklinikalar yangicha ko‘rinishga keltirilayot-gani, zamon talablariga moslashtirilayotgani yaxshi, albatta. Ammo bu bilan aholiga tibbiy xizmat ko‘rsatish sifatini oshirib bo‘lmikan?

– Yo‘q, bu bilan tibbiy xizmat sifatini oshirib bo‘lmaydi, – deydi tuman tibbiyot birlashmasi boshlig‘i Ulug‘bek Shamsiyev. – Zamonaviy tibbiy uskunalaridan to‘g‘ri foydalanish kerak. Buning uchun esa malakali mutaxassislar zarur. Tumanimizda oliy ma‘lumotli tib-biyot xodimlariga ehtiyoj katta. Bugungi kunda tibbiyot muassasalarimizda 129 nafar oliy ma‘lumotli shifokor mehnat qilmoqda. Ulardan 14 nafari 30 yoshgacha, 41 nafari 46-60 yoshgacha va pensiyadagilar 42 nafarni tashkil etadi. Tuman tibbiyot birlashmasiga qarashli shifo maskanlarida 699 nafar o‘rta tibbiyot xodimi faoli-yat yuritmoqda.

Ko‘rsatilayotgan e‘tibor, yaratilayotgan qulayliklar natijasida tumanda aholiga tibbiy xizmat ko‘rsatish sifati yaxshilanib, tumanlardan malakali vrachlar kel-moqda. Ammo asosiy masala - tibbiyot birlashmasiga qarashli shifo maskanlarida 115 nafar oliy ma‘lumotli shifokor o‘rni vakant turibdi. Hozirda Samarqand davlat tibbiyot universiteti bitiruvchilarini ishga jalb qilish va maqsadli ordinatura orqali vrachlarga bo‘lgan ehtiyojni qondirishni rejalashtiryapmiz.

Fazliddin RO‘ZIBOYEV.

Samarqand shahrida Butunjahon sankt-peterburgliklar klubining 11-yig'ilishi bo'lib o'tdi. Madaniy-ma'rifiy tadbir-da ikki mamlakat muzey-shunoslari, kutubxonalar rahbarlari ishtirok etdi.

An'anaga ko'ra, yig'ilish-ni Rossiyaning Ermitaj muzeyi direktori va klub raisi Mixail Piotrovskiy onlayn chiqishi bilan ochib berdi hamda tadbir ishtirokchilarini tabrikladi. Butunjahon sankt-peterburgliklar klubi 1991-yilda tashkil etilgan bo'lib, klub faoliyatining asosiy maqsadlaridan biri dunyo bo'ylab tarixiy merosni saqlash va ushbu sohada ilmiy-tadqiqot ishlarini qo'llab-quvvatlash hamda sohada zamonaviy texnologiyalarni joriy etishdan iborat.

Bugungi tadbir ayni shu jihatga qaratilganligi bilan ahamiyatli, - deydi Ermitaj davlat muzeyi yetakchi ilmiy xodimi Galina Radionova. - Ushbu ikki shahar madaniyati, inson tamadduniga qo'shgan hisssasi bilan tarixan o'xshash madaniy markazlar hisoblanadi. Bu hamkorlik yuz yilga yaqin muddatni o'z ichiga oladi. Ikkinchi jahon urushi

Ermitajda o'zbek xalqi va davlatchiligi

tarixiga oid eksponatlar ko'p



davrida – 1942-1943-yillarda Sankt-Peterburg Badiiy akademiyasi Samarqandga ko'chirilgan. Bugungi tadbir ushbu tarixiy kunning 80 yilligi munosabati bilan shu ko'hna kentda bo'lib o'tyapti. Hozir ham Ermitaj muzeyi Samarqand arxeologiya instituti bilan turli loyihalarda hamkorlik qilmoqda. Ta'kidlash joizki, muzeyimizda o'zbek xalqi va

davlatchiligi tarixiga oid juda ko'p madaniy yodgorliklar saqlanyapti. Shu jihatdan Sankt-Peterburg O'zbekiston madaniy merosini o'rganish va targ'ib etishda katta ahamiyatga ega.

Tadbir qatnashchilari hamda klub a'zolari Samarqandda madaniy merosni asrab-avaylash, uni kelajak avlodga yetkazish maqsadida amalga

oshirilayotgan ishlarni e'tirof etdi. Bundan keyin ham ushbu sohada hamkorlikka tayyor ekanliklarini bildirdi.

Shuningdek, tadbirda O'zbekiston Milliy kutubxonasi tasarrufidagi 14 ta viloyat axborot-kutubxona markazlari mutaxassislari malakasini oshirish bo'yicha Sankt-Peterburg shahridagi Prezident kutubxonasi hamda Mayakovskiy nomidagi shahar kutubxonasi bilan imzolangan memorandum bo'yicha ish reja belgilab olindi.

Memorandum joriy yil 15-18-iyun kunlari Sankt-Peterburgda bo'lib o'tgan XXV Peterburg xalqaro iqtisodiy forumi doirasi-da imzolangan edi, - deydi O'zbekiston Milliy kutubxonasi rahbari Umida Teshaboyeva. - Har bir kutubxona bilan maqsadlar, amalga oshirish mexanizmlari va belgilangan vazifalarni amalga oshirish muddatlariga aniqlik kiritgan holda o'zaro hamkorlikning aniq yo'nalishlari bo'yicha "Yo'l xaritasi"ni ishlab chiqishga qaror qildik.

Tadbir ishtirokchilari klub, uning xalqaro faoliyati va Samarqandga oid o'rni haqida so'zladi hamda ularga klub tomonidan nashr etilgan kitoblarni sovg'a qilindi.

S.MARDIYEV.

Bugungi kunda sud ekspertiza faoliyatini zamonaviy va yuqori aniqlikdagi tahlil vositalari bilan jihozlash orqali odil sudlovni ta'minlash, sud ekspertizalari sifati va ishonchligini oshirishga talab oshmoqda. Odam DNKsi sud-biologik ekspertizasi laboratoriyasida aynan shunday murakkab tadqiqotlar ko'p o'tkaziladi.

Odam DNKsi sud-biologik ekspertizasiga murojaatlar

o'tgan yilga nisbatan uch baravarga ortgan

Fuqarolik ishlari bo'yicha sudlar tomonidan Respublika sud-ekspertizasi markazining odam DNKsi sud-biologik ekspertizasi laboratoriyasiga biologik otalik faktini aniqlash, biologik onalik faktini aniqlash va boshqa qarindoshlik faktlarini aniqlash yuzasidan ekspertizalar tayinlanib kelinmoqda.

Hozirgacha nizoli yaqin qarindoshlikni hamda shaxsni aniqlash masalalarini hal etishda DNK tahlilidek ishonchli va aniqroq uslub mavjud emas. Yaqin yillargacha ham fuqarolik sudlari tomonidan nizoli otalik masalalarini hal etish uchun guvohlarning ko'rsatmalari, turli hujjatlar, tavsifnomalar taqdim etish talab qilinsa-da, bularning barchasi odil sudlovni ta'minlay olmas, ko'p hollarda masala sudlashayotgan tomonlarning bir-biriga nisbatan bo'htonlar tarqatishiga ham taqalar edi. DNK ekspertizasi xatoliklarni butunlay bartaraf etish imkoniyatiga ega. Genetik tadqiqotlar sud ajrimlari asosida, shuningdek, shaxsiy sirlarni tarqatmaslikka rioya qilgan holda, shaxslarning murojaati va shaxsi sir saqlan-

gan holda, ya'ni anonim asosida ham o'tkaziladi.

Laboratoriya amaliyotida yaqin qarindoshlikni aniqlash masalalari yuzasidan fuqarolik ishlari bo'yicha sudlardan da'vo-garning otalikni belgilash va aliment undirish, tug'ilganlik guvohnomalariga o'zgartirish kiritish maqsadida, meros belgilashda qarindoshlikni aniqlash holatlari bo'yicha shaxslarning murojaati va anonim murojaatlar bo'yicha tadqiqotlar o'tkazib kelinadi. Markazning viloyat bo'limi odam DNKsi sud-biologik ekspertizasi laboratoriyasida yaqin qarindoshlikni aniqlash masalalari biologik otalik, biologik onalik faktini aniqlash yuzasidan hozirgi kungacha 180 dan ziyod murojaat kelib tushgan. Shundan bo'limga bevosita shaxslarning o'z murojaatlari, ya'ni mutaxassis fikrlari va anonim murojaatlari soni 30 dan ziyodni tashkil qilib, bo o'tgan yilga nisbatan uch baravarga ortgan.

N.RO'ZIYEVA,

Respublika sud-ekspertiza markazi viloyat bo'limi odam DNKsi sud-biologik ekspertizasi eksperti.

Moliyaviy nazorat ishi talabalar amaliyotida

Har bir inson intellektual salohiyat, noyob qobiliyat va iste'dodini, avvalo, o'zi uchun, oilasi, xalqi va davlatining farovonligi, baxt-saodati, manfaati uchun baxshida etsa, bunday jamiyat taraqqiy etib boraveradi.

Samarqand iqtisodiyot va servis instituti-ning iqtisod hamda buxgalteriya hisobi va audit fakultetlari talabalariga moliya va soliq fanidan "Moliyaviy nazorat" mavzusini o'rganish bo'yicha viloyat iqtisodiyot va moliya boshqarmasida amaliy dars tashkil qilindi.

Dars davra suhbatii tarzida tashkil qilinib, unda boshqarma mas'ul xodimlari moliyaviy boshqaruv, rejalashtirish, prognozlashtirish, dasturlashtirish, tartibga solish, moliyaviy nazorat va resurslarni jalb qilishni talabalarga aniq misollar bilan tushuntirib berishdi.

Ta'kidlanganidek, islohotlar izchilligini ta'minlash va davlat budjeti xarajatlardan oqilona foydalanish jarayonida moliyaviy nazoratning ilg'or usullarini o'tkazish, mablag'lardan foydalanish samaradorligini oshirish hamda xarajatlarni tejashda moliyaviy nazorat organlarining profilaktik tadbirlarni o'tkazishi muhim ahamiyat kasb etadi. Moliyaviy intizomni ta'minlash, budjet mablag'laridan maqsadsiz foydalanilishiga yo'l qo'ymaslik orqali davlat moliyaviy siyosatining amalga oshirishiga ko'maklashishdan iboratdir.

Qiziqarli kechgan amaliyot mavzusiga oid savollarga soha mutaxassislari javob berishdi.

Oltin ASHUROVA,
Samarqand iqtisodiyot va servis instituti o'qituvchisi.

"Oddiy tomorqachi edim, bugun xalqaro anjumanlar ishtirokchisiman"

Aslida azal-azaldan ular ro'zg'origa kerakli barcha buyumlarni o'z qo'llari bilan yasagan. Yostiqlik, ko'rpa, jild deysizmi, dasturxon tikishmi, hatto o'yinchoqlar ham qo'lbola bo'lgan. Bu mahsulotlarni asosan o'zlari uchun tayyorlashgan, sotish haqida gap ham bo'lmagan. Mana, oradan o'n yilliklar o'tib, qishloq ayoli momolari bajarib kelgan bu yumushlar orqali daromad topyapti.

Ha, qishloq ayoli deganda bugun ko'z o'ngimizda qolib ketgan daladan beri kelmay, yarim kechasi turib, tandirga o'tin qalaydigan ayollar qiyofasi kun sayin reallikdan uzoqlashib bormoqda. Bugun uyda o'tirib, sudtan turli mahsulotlar tayyorlab, bozorga chiqarayotgan, shu orqali tadbirkorlik boshlagan ayollar, hunarmandchiligi bilan atrofdagilarning hojatini chiqarayotgan, tikuvchilik, pishiriqlik sexi, hatto o'quv markazlari tashkil qilib, daromad topayotgan qishloq ayollari qatlami paydo bo'ldi. Hukumat tashabbusi hamda ko'p magi, nodavlat tashkilotlar sa'y-harakatlari bilan ularga tadbirkorlik ko'nikmalari o'rgatildi, imtiyozli kreditlar berildi.

Keyingi yillarda Xalqaro qishloq ayollari kuni har yili o'ziga xos tarzda o'tkazilmoqda, - deydi viloyat oila va xotin-qizlar boshqarmasi boshlig'i o'rinbosari Nilufar Yavqocheva. - Bu yil ham mazkur sana avvalida qishloq ayollari bilan madaniy-ma'rifiy suhbatlar o'tkazildi. Kam ta'minlangan xotin-qizlar holidan xabar olindi. Dalalarda, paxta terimida ishtirok etayotgan opa-singillari-mizga sovg'a-salomlar yetkazildi. Aytish kerakki, bugun viloyat qishloq hududlarida bir million 800 mingga yaqin xotin-qiz istiqomat qiladi. Ular orasida fermer ayollar bilan bir qatorda hunarmand, tadbirkor ayollar qatlami paydo bo'lmoqda.

Garchi qishloq hududlarida turli soha egalari nom qozonayotgan bo'lsa-da, yerdan daromad topish baribir bugungi kun qishloq aholisi, jumladan, ayollarning ham asosiy yumushidir.

Men bolaligidan yerga urug' qadab, undan hosil olishgacha bo'lgan jarayonni yaxshi bilib ulg'ayganman, - deydi Samarqand tumani "Shahboz-Anisjon bog'lari" fermer xo'jaligi rahbari Nilufar Ma'rupova. - Uyimizda kichik tomorqada ishlash bilan birga, dashtdagi yerlarda ham mehnat qildik. 2010-2015-yillarda hatto shu dashtlarda vagonchada yashab, ishlaganmiz. To'g'ri, tomorqa ishi hech qachon oson bo'lmagan, ba'zida suv muammo bo'lsa, ba'zan ekinga kasallik tegib, yaxshi hosil bermagan. Bir qararasam, bahor seryog'in kelib, qilgan harakatlarni zoye ketadi. Ammo har qanday holatda ham yer bizni riqsiz qoldirmadi. Uch ovsin bir hovlida qiynalib yashagan, boshqalarning yerida ishlab yurgan kezarimizda yor-

dam so'rab, hokimiyatga bordim. Yer ajratishlarini, o'sha yerda ekin qilib, ro'zg'or tebratishimizni aytdim. Ko'p o'tmay, murojaatim ijobiy hal bo'ldi. Unumsiz, toshloq yerdan bir gektar ajratib berishgan bo'lsa-da, bundan norozi bo'lmadik. Shu yerni obod qilamiz deb oilamiz bilan belni mahkam bog'ladik. Uni tozalash, unumdorligini oshirish uchun bor mablag'imizni sarfladik, to'g'risi. Hamma narsa ekib ko'rdik, afsuski, hosil olish imkoni bo'lmadi. Bor mablag'imizni sarflab qo'yganmiz, endi nima qilamiz, deya o'ylab, turmush o'rtog'im bilan Rossiya davlatiga ishlashga bordik. Ikki yil qattiq ishlab, pul jamg'arib qaytdik, izlanib-o'rganib, yerimizda bog' barpo etishga qaror qildik. Baxmal olmalaridan ekib, hali nihollar kichik payti oralariga kartoshka, pomidor, ko'kat ekib, sota boshladik. Shu tariqa o'zimizni o'nglay boshladik. 2017-yilda kredit olib, issiqxona qurdik, hozir limonlarimiz hosilga kirgan. Limon nihol payti issiqxonada ham qator oralariga rediska, ko'kat, pomidor ekib, daromad oldik. Xullas, ipak qurti boqamiz, chorvamiz bor, qishloq sharoitida amalga oshirish kerak bo'lgan barcha ishlarni qilamiz, ro'zg'orimiz shuning ortidan obod.

Yaqinda Toshkenda Xalqaro qishloq ayollari kuniga bag'ishlab "Oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash va qishloq xo'jaligini innovatsion rivojlantirishda xotin-qizlarning o'rni" mavzusida xalqaro forumda ishtirok etib qaytdim.To'g'risi, bir talay rejalarni bilan keldim. Olma daraxtlarimiz qarib qoldi, ularning o'rni boshqa meva ko'chatlarini bog'dagi hosildorlikni qo'q qilmasdan turib amalga oshirish yo'llari bilan tanishdim. Shu yil harakatni boshlaymiz. Nasilli chorva olib kelish, bo'sh uyimizda tikuvchilik sexi tashkil etish kabi ishlarni oilamiz bilan muhokama qilaypmiz hozir.

Hayotimizdagi yaxshi o'zgarishlar yerga mehr qo'yganimiz, tinimsiz harakatimiz natijasidir. Ko'pchilik Rossiyada qolib, qiynalmay shu narsalarga erishsa bo'lardi, deb aytadi. Avvalo, mehnat hech joyda yengil bo'lmagan. Ikkinchidan, biz hanuz boshqa davlatda, farzandlarimizdan olisda mehnat qilib yurganimizda bugun katta bir xo'jaliksiz qolib, yana birovlarning qo'lida ishlashimizga to'g'ri kelardi. Shukurki, halol mehnatimiz evaziga o'z yurtimizda, ro'zg'orimizni obod etyapmiz.

Gulruh MO'MINOVA.

REKLAMA, E'LONLAR, BILDIRISHLAR / Gazetamiz haftada uch marta - seshanba, payshanba va shanba kunlari chop etiladi / Gazetada chop etilayotgan reklamlar va e'lonlar tezkor, samarali va hamyonbop / MUHOJAAT UCHUN TELEFON: 66-233-91-56

MINNATDORMIZ!

O'zbekiston kasaba uyushmalari federatsiyasining Samarqand viloyati kengashi tomonidan joriy yilning 9, 10, 11-oktabr kunlari qariyalar va nogironligi bo'lgan shaxslar uchun Xorazm viloyatiga uch kunlik sayohat tashkillashtirildi. Bu sayohatga Samarqand shahri va tumanlardan 54 kishi taklif qilindi.

Zamonaviy avtobusda qiyinchiliksiz Urganch shahriga yetib bordik. Shahar markazidagi shi-nam mehmonxonaga joylashdik. Xodimlarining muomalasi, bizlarga ko'rsatgan xizmatlari a'lo darajada. Mehmonxona restoranida uch mahal ovqatlanidik. Sayohatimizning ikkinchi kunini Xiva shahridagi "Ichan qal'a" davlat muzeyi-qo'riqxonasi hududidagi muzeylarni tomosha qilishdan boshladik. Majmuadagi Pahlavon Mahmud maqbarasi va boshqa qadamlolarni ziyorat qildik. So'ngra Urganch shahridagi "Oxun bobo" masjidi, Jaloliddin Manguberdi haykali va "Ulli hovli" tarixiy majmuasini borib ko'rdik. Sayohatimiz davomida inson qadri, erkinligi, baxt-saodati ulug'langan yurtda yashayotganimizdan faxrlandik.

Avvalo davlatimiz rahbari va bu kabi savobli ishlarni amalga oshirayotgan tashkilotchilardan juda minnatdormiz. Binobarin, ushbu homiylik asosida tashkil etilgan sayohat ham o'z navbatida O'zbekistonda insonparvarlik tamoyillarining yana bir ifodasi ekanligini tasdiqlaydi.

Sayfiddin SHODMONOV,
Qo'shrabot tumani, faxriy o'qituvchi.

RAHMAT SIZGA, SHIFOKORLAR!

Tinchlik, sog'lik – eng bebaho ne'mat. Ular bo'lsagina, insonda halovvat bo'ladi. Samarqandda azaldan tib ilmi keng taraqqiy etgan. Bugungi kunda Samarqand shahrida joylashgan shifoxona va klinikalarning tibbiy xizmat ko'rsatish sifati o'sgan bo'lib, turli xil kasalliklarni davolash uchun barcha sharoitlar mavjud. Xalqimizning eng so'nggi usul va rusumlardagi tibbiyot xizmatlaridan bahramand bo'layotgani e'tirofga loyiq.

Yaqinda tobim qochib, O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi Respublika ixtisoslashtirilgan travmatologiya va ortopediya ilmiy-amaliy tibbiyot markazi Samarqand filialiga murojaat qildim. Laboratoriya tahlili kasallikni aniqlashda katta ahamiyatga ega. Faxriy shifokor bo'lganligim tufayli laboratoriya xodimlarining harakatlarini kuzatdim. Laboratoriya bo'limi boshlig'i Shahlo Xoliqova har bir tahlilni o'zi kuzatib borar ekan. Laborant qizlar Sabohat Xursanova, Feruza Sharipova, Parvina O'rinovlarning juda pokiza, toza ishlashiga lol qoldim.

Sog'liqni saqlash tizimidagi mehnatlari uchun ularga o'z minnatdorigimni bildiraman.



Abduhakim SHODMONOV,
Urgut tumani, faxriy shifokor.

DA'VOLAR BO'LSA...

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Norqulov Alisher Toshbaltayevich notarial idorasida marhum Ganiyev Raximga (2017-yil 26-aprelda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Norqulov Alisher Toshbaltayevich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Firdavsiy ko'chasi, 85-uy.

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Yusupova Dilsura Hasanovna notarial idorasida marhum Muxtarov Toxir Xodjalievichga (2020-yil 24-mayda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Yusupova Dilsura Hasanovna notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Abdurahmon Jomiy ko'chasi, 64-uy.

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Jo'rayev Kamoliddin Muhiddinovich notarial idorasida marhum Djololov Seradiga (2017-yil 21-avgustda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Jo'rayev Kamoliddin Muhiddinovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand shahri O'zbekiston ko'chasi, 35-uy.

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Aliyeva Lola Zoirovna notarial idorasida marhum Cherepanov Aleksandr

Nikolayevichga (2015-yil 23-fevralda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Aliyeva Lola Zoirovna notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Mirzo Ulug'bek ko'chasi, 80-uy.

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Yusupova Dilsura Hasanovna notarial idorasida marhum Nazarova Xayrino Raufovna (2021-yil 26-noyabrda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Yusupova Dilsura Hasanovna notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Abdurahmon Jomiy ko'chasi, 64-uy.

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Ismoilova Shahlo Bahrliloyevna notarial idorasida marhum Temurov Rustamga (2020-yil 28-iyulda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Ismoilova Shahlo Bahrliloyevna notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Abdurahmon Jomiy ko'chasi, 17-uy.

"Zarafshon" va "Самаркандский вестник" gazetalarini tahririyati bulung'urlik jamoatchi muxbir **Abdurahmon QODIROV**ning vafoti munosabati bilan marhumning oila a'zolari va yaqinlariga ta'ziya izhor etadi.

Surat – bir tomonida ochiq-sochiq kiyingan juvon, ikkinchi tomonida qizaloq. Ustida yozuv: “Pedofilmisiz yoki yo‘q, aniqlab oling: sizda bu rasmdagi qizlarning qaysi biriga nisbatan tuyg‘u paydo bo‘ldi?”. Ijtimoiy tarmoqdagi ushbu post meni qanchalik taajjubga solgan bo‘lsa, shunchalik o‘yga toldirdi. Nahotki bu jirkanch illat haqidagi tushunchamiz shunchalar sayoz bo‘lsa?! Shu qadar sayozki, uning profilaktikasini ham reklamaga aylantirib yuboryapmiz.

YOPIQ mavzudagi OCHIQ gaplar



Yoxud o‘zini yashirsang, isitmasi oshkor qilayotgan pedofiliya to‘g‘risida

Xuddi shunday kayfiyat u bilan bog‘liq jinoyatlar muhokamasida ham seziladi: tafsilotlar, isbotlan-magan ayblovlar, kurakda turmas gaplar. To‘g‘ri, har qanday aqli raso inson norasida bolaning tahqirlani-shini og‘ir qabul qiladi, bu ishga qo‘l urgan shaxs eng oliy jazoga loyiqligi masalasida ham tortishish niyatini yo‘q. Meni tanganing ikkinchi tomoni qiziqtiradi. Aytaylik, pedofiliya uchun jazo choralarini og‘irlashtirish orqali maqsadimizga erishamizmi? Nega keyingi vaqtda u haqdagi shumxa-barlar yomg‘irdan keyingi qo‘ziqorin singari ko‘payib ketdi? Unga qarshi kurashish yo‘li bormi?

PEDOFIL KIM?

Bu mavzu yuzasidan berilishi mumkin bo‘lgan eng murakkab savol hisoblanadi. Sababi, pedofiliya nima-ligini deyarli barchamiz, yuzaki bo‘lsa-da, bilamiz, biroq pedofil kimligini bilmas ekanmiz. Xalqaro tajriba pedo-filiya jinoyati bilan qamalgan odam aslida pedofil bo‘lmasligi yoki aksin-cha, pedofiliyaga mayli bor odam butun umr namunali er va sevimli ota bo‘lib, jinoyatga qo‘l urmasdan yashashi mumkinligini ko‘rsatmoqda. Demak, barchasini muhit va tarbiya belgilaydi.

Mavzuga qo‘l urishdan oldin unga

oid bir qancha maqola va tadqiqotlar natijalari bilan tanishishimga to‘g‘ri keldi. Ularni umumlashtirib aytishim mumkin, pedofiliya, avvalo, ijtimoiy, undan keyin psixologik muammo hisoblanadi. Shu bois pedofilning alo-hida belgilari yo‘q va u sizni biz kabi oddiy hayot kechiradi, kerak bo‘lsa, o‘z ichki “shayton”i bilan kurashib ya-shaydi. Shunday ekan, o‘zi hujumga o‘tmaguncha, dushmaning kimligini bilmaymiz. Uni izlash esa jamoatchilik orasida sarosima uyg‘otishdan boshqa narsa bermaydi. Qo‘lga tushgan taqdirda ham uning pedofil yoki pedofil emasligini faqat psixiatr aniqlashi va tashxis qo‘yishi mumkin. Ha, aynan tashxis qo‘yladi. Sababi pedofiliya – bu, avvalo, kasallik. U ka-salliklarning xalqaro tasnifiga kiritilgan bo‘lib, jinsiy moyillikning buzilishi bilan xarakterlanadi.

Bolalar psixologi Muazzam Ibrohimova mavzuga oid maqo-lasida pedofilning “paydo” bo‘lishi masalasiga alohida to‘xtalgan. Unga ko‘ra, pedofiliyaga moyillik oilada onalarining kuchli “hukmron”ligi ostida ruhan ezilgan, g‘ururi topta-lib, vaqtda “o‘g‘il” bolaligini isbotlay olmagani, jinsiy tajovuzga uchragan bolalarda ko‘proq bo‘ladi. Ya‘ni, o‘sha manqurtlarni o‘zimiz “yarata-miz”. Tabiiyki, bu tez bo‘ladigan

hodisa emas, insonning yoshligida olgan ruhiy zarbasi yillar davomida kattalashib, kuchayib boradi. U dar-dini kimga aytishni bilmaydi. Atro-fidagilar, jamiyat bu xabarni qabul qilishga tayyor emas. Oqibatda u buni norma deb qabul qiladi va o‘zi ham jinoyatga qo‘l uradi.

MUAMMO HAQIDA GAPIRMASLIK UNING YO‘QLIGINI ANGLATMAYDI

Bizda vaziyat qanday: jami-yatimizda bu illatning oldini olish, unga qarshi kurashish choralari to‘g‘risida rasmiy ma‘lumot beril-ganini ko‘rganim yo‘q. Ba‘zilarning fikricha, ayni mavzu haqida ochiq gapirilsa, pedofillar soni ko‘payib ketarmish. Biz gapirmasak ham ijtimoiy tarmoqlar bor. Deyarli har hafta shunga oid yangi jinoyat taf-silotlari bilan ta‘bimizni xira qilishni kanda qilmayapti. Bunda jim o‘tirish, ko‘rib ko‘lrmaganga olish to‘g‘rimi? Tushunchasizlar “olov”ni qanday o‘chirishni bilmay turib, ustiga “ben-zin” sepayotgan bir vaziyatda-ya? Mulohaza yangi savollarni keltirib chiqaraveradi. Xo‘p, bu mavzuda gapirish madaniyatimizga to‘g‘ri kel-masa, muammo bilan kimdir shug‘ul-lanyaptimi? Mazkur savolga ham javob izlab ko‘rdim. Topganim faqat

Mushtariy ilhomi Orzu

Hayotning behudud kengliklarida Shamolday yugurib yelmoqdir orzum. Suvga zor giyohlar malhami uchun Ko‘kdan yomg‘ir bo‘lib kelmoqdir orzum.

Inson qalbi mubham, sirli bir dunyo, Unda ne borligin bilmoqdir orzum. Qalblarga eshigin yuragim bilan Asta chertib, sekin kirmoqdir orzum.

Har dilning ko‘kida goh oy, goh yulduz, Quyoshdek charaqlab turmoqdir orzum. O, orzu, ilkimga aylana bilsang, Dillarda baxt qasrin qurmoqdir orzum.

Dillarning ishqivor yaylovlarida Yashil maysa bo‘lib unmoqdir orzum. Sening sochlaringni esa, sevgilim, Sening sochlaringni esa, sevgilim, Mehrim tarog‘ida o‘rmoqdir orzum. Narzitosh YUSUPOVA.

SHU OYDA TAVALLUD TOPGANLAR

16-OKTABR Tog‘aymurod SHOMURODOV – 1945-yilda Past Darg‘om tumanida tug‘ilgan. Jurnalist. "Do‘stlik" ordeni sohibi.

18-OKTABR Abdualaziz YUSUPOV – (1927–2006) Samarqand shahrida tug‘ilgan. O‘zbekiston Respublikasida xizmat ko‘rsatgan fan arbobi. Tibbiyot fanlari doktori, professor. Fazliddin YOQUBJONOV – 1945-yilda Samarqand shahrida tug‘ilgan. Dirijyor. O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan san‘at arbobi.

Sayim tog‘a Ikkinchi jahon urushidan nogiron bo‘lib qaytgandi. Yarador bo‘lib, Bryansk shahrida harbiy gos-pitalda uzoq davolandi. Biroq yana frontga qaytib, dushman bilan jang qilish nasib etmadi. Urushga yaroq-siz, nogiron bo‘lib qolgandi. Qishlog‘iga qayta-rishdi. Umrining oxirigacha jarohat azobi bilan yashadi. Chekkan iztiroblari tinchlik bermasdi. Ko‘z oldidan hamshira Mariya Shabrinaning mehribon nigohi ketmasdi. Besh oy davomida goh behush, goh hushida o‘lim bilan olishib yotganida boshida parvona bo‘ldi, tashnaligi-da og‘ziga suv tomizldi, isitmasi chiqqanida sochiqni ho‘llab, peshonasiga bosdi. Uyga javob berishganida vokzalga kuzatib chiqdi.

- Sayim, mana bu pulni ol, yo‘l uzoq, yegulik olib, yeb ketarsan! – Mariya unga uchta qizil o‘n so‘mlik uzatdi.
- Kerakmas, Mariya, shundoq ham menga ko‘p yaxshilik qilding, umrbod oldingda qarzdorman. Urush tugasa, O‘zbekistonga bor, manzilimni bila-san, kutaman, xayr!
- Yo‘q, avval pulni ol, keyin xayrlashamiz. Sayim hamshirani xafa qilishni istamay, nollig pulni oldi.
- Qarzingni uchrashganimizda qaytarasan, - hazil-lashdi Mariya. – Endi xayr, sog‘-salomat yetib ol yur-tingga! – hamshiraning ko‘zlarida yosh mitilladi.
- Xayr, hamshira!
Urush tugagach, Sayim tog‘a Bryansk gospitaliga bir necha marta xat yozib, Mariyani yo‘qladi, javob bo‘lmadi. Mariyadan olgan qarzi egasini topmay, qay-tib keldi. Yana yozdi, bu gal Bryansk shahar pochta boshqarmasidan javob keldi: “Harbiy gospital urush-dan keyin yopilgan, xodimlari tarqab ketgan...”.
Sayim tog‘a sezyapti, umri nihoyasiga yetib bor-moqda. “Qanday qilib Mariyaning daragini topsa, tirik bo‘lsa, o‘ziga, dunyodan o‘tgan bo‘lsa, biror yaqinlariga undan olgan qarzini uzsa...”.
Bir ta‘ziyaga borib kelgach, ruhan ezilib, kamgap va xomush bo‘lib qoldi. Janoza oldidan imomning marhumning farzandlaridan “Otangiz birovlardan qarz olgan bo‘lsa, dalillar bilan so‘rab kelsa, qay-tarasizlarmi? Qarzning qiyomatda so‘rog‘i og‘ir”, degani qulog‘idan ketmasdi.
- Bobo, siz ko‘p kuyinavermang, albatta, o‘sha



hamshirani topamiz, - ko‘nglini ko‘tardi nabirasi Dilshod. – Nomingizdan Bryansk shahar gazetasiga xat yozamiz. Ko‘rasiz, yordam berishadi.
- Baraka top, bolam! - duo qildi ko‘ngli yorish-gan Sayim tog‘a.
Tog‘aning xatiga javob bo‘lmadi. Keyingi payt-larda urushdan orttirgan jarohati tez-tez xuruj qiladigan bo‘lib qolgandi. Qon bosimi oshib, ko‘ng-li cho‘kib yotib qolgan kunlaridan birida Bryansk shahri gazetasidan xabar keldi:
“Hurmatli Sayim Hoshimov! Siz qidirayotgan hamshira Mariya Shabrina urushdan keyin Rostovga ko‘chib ketgan. Uning nevarasi Olga Shabrina bilan bog‘landik, buvisi o‘tgan yili vafot etgan ekan. Olga bilan aloqa o‘rnatishingiz mumkin. Manzili: Rostov shahri, Don ko‘chasi, 8-uy”.
- Bobo, mana, Olga Shabrinaga voqeani yozib, buvisidan olgan qarzingizni jo‘natib, kvitansiyasini keltirdim, - dedi Dilshod.
- Uning ovozini eshitib, Sayim tog‘a horg‘in ko‘zini ochdi.
- Xudoga shukur. – U chuqur xo‘rsinib, yana ko‘zlarini yumdi, yelkasidan tog‘ ag‘darilib, yengil tortdi. - Balli, o‘g‘lim!
Bundan ellik yil avval bo‘lgan bu voqeani eslar ekanman, bugun ota- bobolarimiz nechog‘lik ardoq-lab kelgan yaxshilik, burch, mehr-oqibat singari yuksak insoniy qadriyatlar sal unutilayotganidan afsuslandim.

Tog‘aymurod SHOMURODOV.

maktablardagi psixologlar bo‘ldi. Ayni kunda pedofiliyaga qarshi jangda-gi “front”da eng birinchi mudofaa chizig‘i ularga ishonib topshirilgan nazarimiza. Bunda psixolog o‘z ishi-ga mas‘uliyat bilan qarasa, bolalar taqdiriga qayg‘ursa yaxshi. Agar u maktabga faqat oylik olish va gurung qilish uchun kelsa, ularga muammosi bor bola ham yaqinlashmaydi.

– Bugungi kunda maktablari-mizdagi har 500 nafar bolaga bir nafar psixolog to‘g‘ri keladi, - deydi Samarqand shahar maktabgacha va maktab ta‘limi bo‘limi metodist psixologi Shahlo Imomova. – Turli vaziyatlar bor bo‘ladi. Bu haqdagi statis-tika oshkor qilinmasa ham tajovuzga uchrayotgan bolalarni kam deya olmaymiz. Bunday bolalar gapirishga qo‘rqadi, bo‘lgan voqea uchun o‘zini aybdor his qiladi. Ularni kayfiyati, xul-qidagi o‘zgarishlardan farqlab olamiz. Bir muddat suhbatlashganimizdan so‘ng dardini aytadi. Juda ko‘p bolalarni og‘ir vaziyatga “qutqarib” qolganmiz. Shunday bo‘lsa-da, ular kuchli psixologik tushkunlikni boshi-dan o‘tkazadi. Bu avvaliga sezilmasa ham keyinchalik o‘z ta‘sirini ko‘rsati-shi aniq. Shu bois ular psixologlar-niing doimiy nazoratida bo‘lishadi.
Sh.Imomovaning ta‘kidlashicha, yuqoridagi holatlar ko‘pincha ishlash uchun xoriiga ketganlarning farzand-lari bilan sodir bo‘ladi. Bunda ota-ona farzandini yaqin qarindoshlari yoki tanishlarida qoldirishi odatiy hol. Ammo ular har doim ham ishonch-ni oqlamaydi. Yo o‘zlari hirsini tiya olmaydi yoki tarbiyadagi e‘tiborsizligi sababli bolalar nomaqbul insonlar davrasiga qo‘shilib qoladi. Ma‘lumki, pala-partish jinsiy hayot kechiruvchi, giyohvand, psixotrop moddalar, spirtil ichimliklar ta‘sirida es-hushini yo‘qot-gan odamlar ham o‘zini boshqara olmay, “pedofil”ga aylanib qolishi mumkin. Xullas, bolaning ota-onasiz o‘sishi vaziyatni yanada og‘irlashtiradi.

VAZIYATNI OG‘IRLASHTIRISH HAQIDA GAP KETGANDA...

Psixolog Sh.Imomova bilan suhbat chog‘ida shu narsa ochiqlandiki, tajovuzga uchragan bolalar bu holat qayta takrorlanishidan ham ko‘ra uning boshqalarga oshkor bo‘lishi-dan qo‘rqishadi. “Sir”idan sinfdosh-lari xabar topgach, o‘z joniga qasd qilganlar ham bo‘lgan ekan. Shu bois bu vaziyatda o‘ta ehtiyotkor bo‘lish,

birinchi o‘rinda bolaning jismoniy va psixologik salomatligini o‘ylash kerak. Bizda esa shu kunlarda barcha-si teskarisiga ishlayapti. Pedofiliya xaqida xabar topgan “faol” borki, uni butun respublikaga e‘lon qilishga shoshadi. Videosi bo‘lsa-ku, soni-yalarda qo‘lma-qo‘l bo‘lib ketadi. Mayli, holatni eng ijobiy jihatdan ta‘riflashga urinamiz - bu to‘g‘rida-gi video yoki axborot pedofilning muqarrar jazolanishi uchun tarqa-tildi, deylik. Unda jabrdiydani nega o‘ylamaymiz? Butun elga tanilgan bola mahallasiga, maktabiga qanday chiqadi? Yuziga “bijir-bijir” qo‘ysak, sinfdoshlari, ko‘chadoshlari tanib olmaydi deb o‘ylaysizmi? Shunday xabarlar tagidagi muhokamalarni o‘qing, biz faqat kimnidir jazolashni istaymiz, jabrdiyda, umuman, yoshlar bilan deyarli ishimiz yo‘q.

Hamkasbimning tilidan: “Yev-ropacha” tarbiya ko‘rgan dugonam bor. Dominig derazasidan qarab tursa, maktabdan qaytayotgan qizining ortidan qandaydir erkak suqlarib kelayotganini ko‘rib qolib-di. Baqir-chaqir qilib, odamlarning e‘tiborini tortgach, o‘sha odam qo-chib ketgan. Shundan keyin u qizini ko‘chaga ochiq-sochiq kiyimda chiqarmaydigan bo‘ldi”. Bu voqeani bejiz keltirmadim. O‘quvchi-qizlari-mizning bugungi kiyinish madani-yati, xulqini ko‘ryapsizmi? Shahar hududida vaziyat yanada yomon. Ular maktabga bilim olishga boryap-timi yoki?... Xullas, buyog‘i farosat va sharm-hayo masalasi. Ota-onalar bo‘lmasa, maktablar ma‘muriyati, mahallalar tomoshabin bo‘lmasligi kerak. Vaziyatni og‘irlashtirmaylik!

BOLALARNI QANDAY HIMOYA QILISH MUMKIN?

Biz maktabda o‘qigan kezlari-mizda yoshlarni katta hayotga tayyorlovchi maxsus fan bo‘lmagan. Ota-onalarning barchasi ham farzandi bilan bu mavzuda gaplashishga jur‘at topa olmaydi. Oqibatda ko‘pchilik nima to‘g‘ri va nima noto‘g‘ri ekanligini kech, ba‘zan o‘z boshidan o‘tkazganidan keyingina anglaydi.
Bugungi yoshlar juda tez ulg‘aymoqda va ularning xatosi qim-matga tushishi mumkin. Maktablar-da esa hamon bu mavzuda gapiril-maydi. Ota-onalar esa o‘sha-o‘sha, o‘zi eshitmagan narsani bolasiga qanday tushuntirsin.

– Yoshlarni bu jinoyat tuzog‘iga tushib qolishdan himoya qilishning eng samarali yo‘li ularning ogohli-gini oshirishdir, - deydi Sh.Imomova. – Ilgari maktablarda yoshlarni oila-ga, jinsiy hayotga tayyorlovchi “Oila psixiologiyasi” fani o‘tilgan. Lekin negadir bu amaliyot to‘xtatildi. Uni qaytarish va davrga moslash kerak. Sababi, yoshlar har qanday axborotni to‘g‘ri manbalardan olishi lozim.

Hozir maktablarimizda “Odobno-ma”, “Vatan tuyg‘usi”, “Milliy istiqlol g‘oyasi va ma‘naviyat asoslari” hamda “Dunyo dinlari tarixi” fan-larini o‘zida birlashtirgan “Tarbiya” fani o‘tilmoqda. Darsliklarni ko‘rdim. Ularda yoshlarni katta hayotga tayyorlovchi mavzular deyarli yo‘q. Xo‘p, agar fan sifatida qilish olma-sak, maxsus darslar tashkil qilish, ularda yoshlarga nafaqat jinsiy hayot, balki o‘ziga bo‘layotgan tajo-vuzni qarqlash, undan himoyalani-sh, shunday vaziyatda kimga murojaat qilish yuzasidan tushuncha berilishi davr talabi. Tarbiyaning bu muhim jihatini ijtimoiy tarmoqlarga topshirib qo‘ygan ekanmiz, muammo kuchay-sa kuchayadiki, aslo kamaymaydi.

Bolalar psixologi M.Ibrohimova ham pedofiliya xaqida ro‘yi rost gapirib, farzandlarimizni ogohlantirish davri keldi, deb hisoblaydi. Shuningdek, u bolalarga hammaga ham ishonavermaslik, xilvat joylarda yolg‘iz yurmaslikni o‘rgatish, agar xonadonda bolalar bo‘lsa, duch kelgan odamni uyga yetaklab kel-maslikka chaqiradi. Mashinada olib qochilgan maktab o‘quvchisi esin-gizdami? Baxtli tasodif tufayli omon qolgandi u. Bu holat qaytarilmasligi-ga hech kim kafolat bermaydi.

Jamoatchilik fikriga quloq tutadi-gan bo‘lsak, pedofiliya jinoyati uchun og‘irroq jazo chorasini belgilash va uning irjosi muqarrar ekanligini amalda ko‘rsatish shahvoniy tUSDagi ji-noyatlarning kamayishiga xizmat qiladi. Bugun dunyoning qator davlatlarida shunday amaliyot qo‘llanilmoqda.

Xullas, hozircha shu. Bu mavzu-da so‘z aytishning o‘zi og‘ir, ayt-maslik esa undan ham qiyin. Nima bo‘layotganini ko‘rib, bilib, jim o‘tirish - befarqlikdan yomoni yo‘q. Maqsadimiz sizni ham mulohazaga chorlash, mas‘ullarga esa signal berish. Harakat qilish vaqti keldi.

Asqar BAROTOV., "Zarafshon" muxbiri.



MUASSIS: Samarqand viloyati hokimligi

Bosh muharrir: Farmon TOSHEV

Gazeta O‘zbekiston matbuot va axborot agentligining Samarqand viloyat boshqarmasida 2012-yil 30-martda 09-01 raqam bilan ro‘yxatga olingan. Nashr 100. Indeks 438. 16 339 nusxada chop etildi. Buyurtma 556. Hajmi 2 bosma taboq, bichimi A-2

Gazeta haftaning seshanba, payshanba va shanba kunlari chiqadi.

QABULXONA: (66) 233-91-51, REKLAMA VA E‘LONLAR: (66) 233-91-56

BO‘LIMLAR: (66) 233-91-57, 233-91-58, 233-91-59, 233-91-61

MANZILIMIZ: 140100, Samarqand shahri, Ulug‘ Tursunov ko‘chasi, 80-uy, Matbuot uyi.

Gazeta «Zarafshon» tahririyatining kompyuter bo‘limida sahifalandi.

«Noshir lux» MCHJ bosmaxonasida chop etildi. Korxona manzili: Samarqand shahri, Spitamen ko‘chasi, 270-uy.

Bosishga topshirish vaqti: soat 18:30 da. Bosishga topshirildi: soat 19:00

Navbatchi muharrir:

G‘.HASANOV.

Navbatchi:

O‘.XUDOYBERDIYEV.


Sahifalovchi:

B.ABDULLAYEV.



Saytimizga o‘tish uchun QR-kodini telefoningiz orqali skaner qiling

ISSN-201667X



Sotuvda narxi kelishilgan holda